

**BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA KREATIV
FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISH**

Baxritdinova Dilobar Zayniddinovna

*"Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrasiga
katta o'qituvchisi. SHDPI*

E-mail:baxritdinovad@gmail.com

Karimova Lobar Lutfulloyevna

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi

E-mail:karimovalobar0715@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ fikrlashni shakllantirishning nazariy asoslari, metodik yondashuvlari va amaliy ahamiyati yoritilgan. Shunindek kreativ fikrlash tushunchasi, uning komponentlari hamda zamonaviy ta'limdagi o'rnini tahlil qilinishi, boshlang'ich sinf o'quvchilarda kreativ (ijodiy) fikrlashni shakllantirishning psixologik-pedagogik asoslari haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Ijodkorlik, kreativ fikrlash, ijodiy tafakkur, o'quvchilar faoliyati ,mustaqil fikrlash, interfaol metodlar , erkin fikr muhit ,darsda ijodkorlik.

Annotation:This article highlights the theoretical foundations, methodological approaches, and practical significance of developing creative thinking in primary school students. The concept of creative thinking, its components, and its role in modern education are analyzed. The psychological and pedagogical foundations of fostering creative (innovative) thinking in primary school students are discussed in detail.

Keywords: Creativity, creative thinking, creative reasoning, student activity, independent thinking, interactive methods, free-thinking environment, creativity in the classroom.

KIRISH. Har bir o'sib kelayotgan yosh avlod kelajak umidi hisoblanadi yosh avlodga ham ma'nan, ham jismonan to'g'ri tarbiya berilsa, yurtning ravnaqi uchun kerakli shaxs bo'lib yetishadi. Kreativlik (ing "create -yaratish, "creative-yaratuvchi, ijodkor) kabi ma'nolarni anglatadi. Kreativ fikrlash bu-odatiy fikrlardan tubdan farq qilgan, noodatiy jihatlari ko'p bo'lgan fikr, mulohazalar yig'indisi. Kreativ fikrlash jamiyatning yuksalishi, taraqqiy topishida muhim ahamiyat kasb etadi .

Kreativlik-shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson ma'naviyatinining ajralmas qismi bo'lib, shaxsni o'z-o'zini rivojiantirish omili, shaxsiy jonbozlikning asosi, shaxs ega bo'lgan bilimlarning ko'p qirrali ekanligida emas, balki yangi g'oyalarga intilishda va o'rnatilgan stereotiplami yangilik yaratish jarayonini isloh

qilish va o‘zgartirishda, hayotiy muammolarni yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo‘ladi. Kreativlik jarayonini tashkil etish boshqarishning murakkabligi shundaki, bunda ijodiy individuallikning nafaqat ongli, balki ong osti tushunchalari paydo bo‘ladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Kreativ fikrlash jamiyatning yuksalishida muhim ro‘l o‘ynaydi. Kreativ fikrlash o‘quvchilarining tanqidiy fikrlash, mushohada yuritish va ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantiradi. Ijodkorlik bu yaratish demakdir. Yaratish-ixtirodir. Insoniyat tomonidan kashf qilingan ixtiolar, butun jamiyat yutug‘idir. Kreativ fikrlash orqali, dars jarayonlaridan kelib chiqadigan qoida va xulosalarni o‘quvchilarga yodlatish emas, balki izlanish va kashfiyotchilik qobiliyatlarini qo‘llab-quvvatlash orqali mustahkam bilim egallashlariga erishish mumkin. Muhtaram Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev o‘z nutqlarining birida quyidagi fikrlarni keltiradilar. “Bugungi kunda bolalarimizda zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish muhim. Ayniqsa, ular tanqidiy va kreativ fikrlash, jamoada ishslash va muloqot qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak. Chunki aynan shu ko‘nikmalar kelajak avlodni har tomonlama yetuk, raqobatbardosh shaxs qilib tarbiyalaydi”. Darhaqiqat, yoshlari bilimli, tarbiyali va ilm olishga tashna bo‘lsa, vatan ertasi uchun o‘zlarining beqiyos hissalarini qo‘shadilar. O‘tgan asrning 60-70 yillari pedagogikada kreativlik muammosini o‘rganishda keskin burilish yillari bo‘Idi. Shu davrda ijodiy izlanuvchan pedagog-novatorlar paydo bo‘ldi. Novatorlar erishgan natijalar nafaqat pedagoglarni, balki psixologlarni ham qiziqtirdi, ular ijodiy ta’limning psixologik tomonlarini, ijod faoliyatining pedagogik psixologiyadagi mexanizmini o‘rgandilar.

Kreativlik so‘zini ilk bor 1922-yilda AQSh olimi D. Simpson tomonidan qo‘llanilgan. K. Rodjers (1944) kreativlik deb muammolarni yangi yechimi va biror narsa, voqeа, holatni ifoda etishning yangi usullarini aniqlashni tushunadi. Kreativlik bilan shaxs va intellektual xossalalar taqqoslangan tadqiqotlar katta ahamiyatga egadir. Kreativlik – bu insonning shaxsiy xususiyati bo‘lib, uning o‘z-o‘zini takomillashtirib va rivojlantirib borishi bilan bog‘liq. Bolalarda kreativlikni rivojlantirishda quyidagilarga e’tibor qaratish zarur:

- 1) ular tomonidan ko‘p savollar berilishini rag‘batlantirish va bu odatni qo‘llab-quvvatlash;
- 2) bolalarning mustaqilligini rag‘batlantirish va ularda javobgarlikni kuchaytirish;
- 3) bolalar tomonidan mustaqil faoliyatni tashkil etilishi uchun imkoniyat yaratish;
- 4) bolalarning qiziqishlariga e’tibor qaratish.

Kreativ fikrlash — bu o‘quvchining mavjud bilimlarini yangi sharoitlarda qo‘llay olishi, mustaqil fikr yuritishi, noodatiy yondashuvlar orqali muammolarni hal eta olishidir. Boshlang‘ich ta’limda bu qobiliyatni rivojlantirish uchun interfaol metodlardan: aqliy hujum, klaster, sinkveyn, rolli o‘yinlar, muammoli savollar va

guruhli ishlardan foydalanish muhim hisoblanadi. Bugungi kunda ta’lim tizimining asosiy maqsadi – mustaqil fikrlaydigan, ijodiy yondasha oladigan, tashabbuskor shaxsni shakllantirishdir. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘quvchilarning kreativ fikrlash salohiyatini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi, chunki bu yosh davrida tafakkur, tasavvur, emotsiyonal-irodaviy faoliyat faol shakllanadi.

XX asrning 50 yillarida ingliz-amerika psixologlarining izlanishlarida kreativlik deb nomlanadigan (creatio - lotincha “yaratish”) alohida qobiliyatlarni o‘rganish katta ko’lamda qiziqish uyg‘otmoqda. Kreativlikni alohida o‘rganishga an’anaviy intellekt testlari bilan muammoli vaziyatni muvaffaqiyatli yechimi orasida aloqaning mavjud emasligi haqidagi ma’lumotlarning aniqlanishi turtki bo’ldi. E’tirof etilishicha, kreativlik ma’lum masalaning yechimini topishdagi axborotlarni tez sur’atda foydalanish qobiliyatiga bog‘liq. Bu qobiliyatni kreativlik deb atadilar va uni intellektga bog’liq bo’lmagan holatda - individning yangi tushunchalar yaratuvchi va shakllantiruvchi yangi malakalari sifatida o‘rgandilar. Kreativlik shaxsning ijodiy ko‘rsatkichlari bilan belgilanadi. Kreativlikni o‘rganish asosan ikki yo‘nalishda olib boriladi;

1-yo‘nalish. Kreativlikni intellekt bilan bog‘liqligi masalalarini va kreativlik bilan bog’liq ta’limiy jarayonlarni belgilashni o‘rganadi.

2-yo‘nalish. Shaxs va uning psixologik o‘ziga xosligi kreativlikning asosiy aspekti ekanligi. Shaxsga va uning motivatsion chiziqilariga urg‘u berilishi bilan tasniflanadi.

Psixolog J. Guilford kreativ fikrlashni divergent tafakkur deb ataydi, ya’ni bir muammoning bir nechta ijodiy yechimini topishga asoslangan fikrlash shakli. Shuningdek, oilaviy va mакtab muhiti o‘rtasidagi hamkorlik ham kreativ salohiyat rivojida katta ahamiyat kasb etadi. Ota-onalar va o‘qituvchilar o‘rtasida muntazam axborot almashinuvi, bolalarning ijobiy tomonlarini muhokama qilish, umumiyo rivojga qaratilgan rejalarining ishlab chiqilishi — ijodkorlik uchun sog‘lom poydevor yaratadi. Intellektual faktorlarni ta’limiy yo‘nalishlarda qo‘llanilishida, kreativlikni o‘rganish, baholashda 1950 yillarda J.Gilford va uning izdoshlari 16 ta gipotetik intellektual qobiliyatni ajratib ko‘rsatadilar.

Xulosa. Boshlang‘ich ta’lim bosqichi – bu nafaqat o‘quvchilarga bilim berish, balki ularning tafakkurini, dunyoqarashini va ijodiy salohiyatini shakllantirishning muhim davridir. Aynan shu yosh davrida bola dunyoni faol kuzatadi, turli savollarga javob izlaydi va mustaqil fikrlashga intiladi. Shuning uchun kreativ fikrlashni shakllantirish ustuvor vazifalardan biri bo‘lib qoladi. Kreativ fikrlash — bu insonning yangicha qarash, muammolarga noodatiy yondashish, mavjud ma’lumotlarni original tarzda qayta ishlash va yangi g‘oyalar yaratish qobiliyatidir. Zamonaviy jamiyatda kreativ tafakkur inson shaxsiy va kasbiy muvaffaqiyatining muhim omillaridan biriga aylangan.

Boshlang'ich ta'lism - bu har bir bolaning hayotida chuqur iz qoldiruvchi ta'lism turidan biri bo'lib, bunda pedagog o'qituvchilarga katta mas'uliyat yuklatiladi. O'quvchilar o'z-o'zidan kreativ bo'lib qolmaydi. Uning kreativ qobiliyati ma'lum vaqt ichida o'qib o'rghanish, o'z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va asta sekin rivojlanib boradi. O'qituvchilar o'quvchilar bilan birgalikda ish yuritib, ularning har birining fikrini inobatga olishi va buni o'quvchiga bildirish orqali o'quvchilarning kreativ bo'lishlariga erishish mumkin. SHuningdek, o'quvchilarning kreativ fikrlashlarini rag'batlantirilsa va samimiy muhit yaratilsagina, kreativ fikrlashni odatga aylantirish mumkin .

Shuni alohida ta'kidlash joizki, o'qituvchining did bilan tanlangan metodlari, individual yondashuvi va o'quvchilar bilan erkin muloqotga kirishishi bu jarayonning muvaffaqiyatlari kechishida muhim o'rin tutadi. Kreativ fikrlashga ega o'quvchi esa kelajakda innovatsion tafakkurga ega, yangilikka ochiq, raqobatbardosh shaxs bo'lib shakllanadi. Shu bois, boshlang'ich ta'linda kreativ fikrlashni rivojlantirishga ustuvor e'tibor qaratish zamонавиј та'limning dolzarb va istiqbolli yo'nalishlaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev SH.M. “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz”. - T.: “O'zbekiston”, 2017 yil, 488 bet.
2. Umumiy pedagogika . - T.: « Fan va texnologiya», 2018, 198- bet.
3. I.S.Xotamov, M.K.Olimov, G.R.Madrahimova, I.S.Foziljonov. “Kreativ fikrlash” . O'quv qo'llanma - Toshkent: “Innovatsiya - Ziyo”,2022,160b.
4. Guilford, J. P. (1950). Creativity. American Psychologist, 5(9)
5. Jo'rayev P.X., Raximov B.X., Xomatov SH.F. Yangi pedagogik texnologiyalar. Muammoli ta'limga asoslangan o'quv - metodik qo'llanma. -T.:Fan, 2005, 66b.